




# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**FARG'ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2023-YIL YANVAR-FEVRAL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



**Tel.: 73-241-96-28  
[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**



## Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 543,7 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 97,1 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Farg‘ona viloyatida 2023-yil yanvar-fevral oylariga aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 900,2 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **3 302,7** mlrd.so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **93,2 %** ni, tashkil etdi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **11,2 mlrd. so‘mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %**ini tashkil etdi.



yanvar-fevral

**2022-y.** 11,4 mlrd. so‘m

**2023-y.** 11,2 mlrd. so‘m

FHI, %da

**2022-y.** 52,8%

**2023-y.** 55,4%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **3 302,7 mlrd. so‘mni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **93,2 %**ini tashkil etdi.

**2022-y.** yanvar-fevral


3 206,7 mlrd. so‘m

**2023-y.** 3 302,7 mlrd. so‘m

FHI, %da

**2022-y.** 104,3%

**2023-y.** 98,2%



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab  
chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

	Dizel yoqilg'isi	Avtomobil benzini	Klinker sement
2023	143,7	2,2 r	22,8
2022	102,9	111,0	53,1
2021	63,7	45,8	184,2
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2023	56,7	31,0	88,8
2022	38,5	74,3	82,2
2021	137,8	123,8	89,2
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirit)	Uzum vinosi
2023	4,5r	169,1	55,1
2022	26,0	47,8	107,0
2021	4,5r	92,5	92,5
Karbamid		Paxta chigit	Paxta linti
2023	0,0	100,2	100,5
2022	0,0	174,8	142,9
2021	60,8	23,3	29,8

2023-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 64,8 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning fevral oyiga nisbatan 2,2 m ga ko'paygan), 60,2 ming tonna dizel yoqilg'isi (43,7 % ko'paygan), 13,3 ming tonna kalava ip mahsulotlari (36,2%ga kamaygan) hamda 4362,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (61,0%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	29,3	64,8	35,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	38,0	33,7	-4,3
Paxta chigit, ming t.	23,9	23,9	0,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,9	1,3	-1,6

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,2 % (2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 186,3%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 42,5% (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 84,1 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,3% (2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,4%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,6 % (2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 119,4 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 %ni (2022-yilning yanvar-fevral oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 11,0 % (7,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,8% (18,8%) va quyi texnologiyalisi – 63,3% (65,2%)ni tashkil etdi.






## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 11,1 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,3% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 57,6 % ni tashkil etgan.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 16,0 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5% ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,7 % ga kamaydi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar

### ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 38,2 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 304,5 mld. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 81,3 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,6 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 670,1 mld. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,2 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 46,9 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 13,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-fevral oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,9 % ni tashkil etgan.



## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 31,0 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 141,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 47,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 112,6 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 %, fizik hajm indeksi 169,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 216,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,8 % ni tashkil etgan.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 % ni, fizik hajm indeksi 112,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 261,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni fizik hajm indeksi esa 70,0 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,7 % ni, fizik hajm indeksi 97,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 186,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % ni fizik hajm indeksi esa 49,0 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 162,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 57,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 105,0 % ni tashkil etgan.

## **Elektr uskunalari ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 123,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 26,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni fizik hajm indeksi esa 77,3 % ni tashkil etgan.



## **Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 115,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 29,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni fizik hajm indeksi esa 178,9 % ni tashkil etgan.



## **Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**


2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 %, fizik hajm indeksi 85,5 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 60,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni fizik hajm indeksi esa 153,0 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 195,8 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5% ini) tashkil etadi.


2023-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 33,1 mlrd. so‘mga kamayganligi kuzatildi.



### **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya, mln.kVt.s</b>	<b>46,5</b>	<b>58,6</b>	<b>12,1</b>
<b>Issiqlik energiyasi, ming gkal</b>	<b>239,4</b>	<b>257,5</b>	<b>18,1</b>

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	<b>3,4</b>	<b>2,7</b>	<b>-0,7</b>
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	<b>1,7</b>	<b>2,6</b>	<b>0,9</b>


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,9 mlrd. so'm yoki 22,7 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,9 mlrd. so'm va 1,3 %ga ko'paygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 047,3 mld. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 105,2%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,6%ni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar-fevral



### Nooziq-ovqat mahsulotlari

2023-yil  
yanvar-fevral



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 13,8 mld. so'mni tashkil etdi.

2022-yil 101,2%

2023-yil 105,2%



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 266,1 ming.so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,1 %ni tashkil etdi.

### Farg‘ona viloyati

2022-yil

114,8%

899,9

ming so‘m

*2022-yil yanvar-fevral*

2023-yil

103,1%

266,1

ming so‘m

*2023-yil yanvar-fevral*



## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'onaviyoti jami oziq-ovqat mahsulotlari 520,9 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 526,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.

*Oziq-ovqat mahsulotlari  
Yanvar-fevral*

*Hajmi, mlrd.so'm*

425,8      2022-yil

520,9      2023-yil

*O'sish sur'ati %da*

93,3%      2022-yil

100,4%      2023-yil

*Nooziq-ovqat mahsulotlari  
Yanvar-fevral*

*Hajmi, mlrd.so'm*

462,7      2022-yil

526,4      2022-yil

*O'sish sur'ati %da*

107,8%      2022-yil

109,6%      2022-yil



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi  
2023-yilning yanvar-fevral oylarida  
*jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da***


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 669,9 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,1 %ni tashkil etdi.

**2023-yil 3-mart holatiga**

**Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 12031 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ularidan 8083 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**



**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

